

**MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA YO'RIQCHILARNING KASBIY-
INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA
IJTIMOIY HAMKORLIKNING AHAMIYATI**

Nalibayeva Cho'lon Baxit qizi

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqarish va texnologiyalar universiteti
Pedagogika va psixologiya kafedrasи o'qituvchisi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada malaka oshirish tizimida yo'riqchilarning kasbiy-intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ijtimoiy hamkorlikning ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: o'qituvchi, ta'lif tizimi, qobiliyat, islohotlar, ijtimoiy hamkorlik, kasbiy ko'nigmalar, ta'limning shakllari, yangi usullar, o'quv jarayoni, pedagogik faoliyat, shaxsning psixologik xususiyatlari.

Hozirgi vaqtida mamlakatimiz ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bo'lib, ularning kasbiy ko'nigmalarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, zamonaviy talablarga muvofiq kasbiy bilimlar bilan qurollantirish mexanizmlarini joriy etish asosida uzliksiz kadrlar tayyorlashni amalga oshirish ta'lif bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida qaralmoqda.

Mamlakatimizning ta'lif sohasida katta islohotlar olib borilayapti. Nafaqat ta'lif sohasida balki, barcha sohalarda tub burulishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy - ma'naviy hayat darajasining yuksalishi ta'lif tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti, yuqori salohiyatli, immuniteti mustahkam yoshlari bilan belgilanadi shubhasiz. Bu esa o'z navbatida ustoz-muallimlar zimmasiga o'ta mashaqqatli, ma'suliyatli vazifa yuklaydi.

Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi o'qituvchga eng muhim vazifa - yurt ravnaqi poydevorlari va kelajagi bo'lgan yoshlarni tarbiyalash, ularga mustahkam bilim berish vazifasi yuklatilgan. Insonga ta'lif va tarbiya berish nihoyatda murakkab, mashaqqatli jarayondir. Shuning uchun qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk insonlari, arboblari jalb etilgani bejizga emas. Yosh avlod tarbiyasi faqatgina shaxs kamolotigina emas, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilovch muhim ahmiyatli omil ekanligi ta'kidlanadi.

2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli qaror asosida tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonda, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lifni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash

jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliv ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy sohani rivojlantirish ustovor vazifa sifatida belgilab berilgan.

Ushbu Konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida oliv ta’limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, vazifalari, o‘rta va uzoq muddatli istiqbolidagi rivojlanish bosqichlarni belgilab, sohaga oid fan dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo‘ladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagagi PQ-4391-son “Oliv va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarorida quyidagi asosiy vazifalari etib belgilangan:

oliv va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi sohasida zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy- axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlashga qaratilgan yagona davlat siyosatini amalga oshirish;

ta’limning yangi pedagogik texnologiyalari va o‘qitish uslublarini joriy etishning xalqaro amaliyatga muvofiq ta’lim jarayonini tashkil etish, o‘quv rejalarini va fan dasturlarini takomillashtirish, o‘qitishning zamonaviy shakllari va axborot-kommunikasiya texnologiya vositalarini joriy etgan holda o‘quv jarayonini sifat jihatidan yangilash;

zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish orqali talabalarni jahon ta’lim resurslari, ilmiy adabiyotlar elektron katalogi va ma’lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va hokazo.

Mazkur qaror ijrosini ta’minalashda bevosita bo‘lajak pedagog kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish va takomillashtirish, tizimda samarali islohotlar olib borish muhim.

O‘rganilayotgan jarayon, ya’ni malaka oshirish tizimida yo‘riqchilarni kasbiy tayyorlash jarayoni pedagogik faoliyatning barcha bosqichlarida o‘zlarining kasbiy tajribalarini anglash, tahlil qilish va baholash, shuningdek, o‘zini-o‘zi shaxsiy rivojlantirish ehtiyojlarini faollashtirish va qo‘llab-quvvatlashga asoslanadi. Mazkur jarayonda shaxsning ma’naviy takomillashuvi hamda ijodiy salohiyatining rivojlanishi uchun imkoniyat vujudga keladi.

Malaka oshirish tizimi yo‘nalishida olib borilgan tadqiqotlarda mazkur jarayonga turlicha yondashuvlar mavjudligini ko‘rish mumkin. Malaka oshirish tizimida yo‘riqchilarni tayyorlash jarayonida ularning kasbiy-intelektual qobiliyatlarini rivojlantirishning uch bosqichi mavjud: tayyorgarlik bosqichi, integratsiya bosqichi va ijodiy bosqich.

Tayyorgarlik bosqichida ta’limning prognostik va diagnostik darajasiga o‘z-o‘zini baholash, o‘zini o‘zi aniqlash, o‘qitishning mazmuni va uslublarini faol rivojlantirishga tayyorlikni shakllantirish asosida erishish ta’milanadi. Vazifaning

mazmuni asosan o‘qituvchi va ta’lim oluvchining birgalikdagi faoliyatida kutiladigan muammoli-rivojlantiruvchi ta’lim sharoiti konkretlashtiriladi. Ushbu bosqichda malaka oshirish tizimida yo‘riqchilarda muayyan jarayonga tayyorlik va uning tarkibiy qismlari to‘g‘risida tushuncha rivojlantiriladi, takomillashuv va o‘zini o‘zi rivojlantirish maqsadlari belgilab olinadi, kasbiy-intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan faoliyatga kognitiv qiziqish uyg‘otiladi, o‘zini o‘zi baholash darajasi me’yorashtiriladi, maqsadlarni belgilash, o‘z faoliyatini rejalashtirish qobiliyati rivojlantiriladi.

Malaka oshirish tizimida yo‘riqchilar mustaqil o‘quv-bilish faoliyatining ratsional usullarini o‘zlashtiradilar, berilgan vazifalarni hal qilishning samarali usullarini tanlashni o‘rganadilar.

Regulyativ harakatlarni takomillashtirish va o‘qitishning boshlang‘ich darajasiga erishish bilish jarayonida tashabbusni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, malaka oshirish tizimida yo‘riqchilarning mustaqil faoliyatini rag‘batlantirish, kasbiy faoliyati uchun zarur bo‘lgan o‘ziga xos fazilatlarni, bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishga e’tibor berish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi muhim. Malaka oshirish tizimida kasbiy, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishda ta’lim sifatining asosiy tashkil etuvchilari:

- ✓ ta’lim muhitining tashkil etilishi sifati (kadrlar, axborot, texnika, o‘quv-metodik ta’minot);
- ✓ ta’lim jarayoni sifati (ta’lim mazmuni, ta’limning shakllari, metodlari va texnologiyalari);
- ✓ natija (qo‘yilgan maqsadlarga erishish, fikrlash va faoliyat yuritishning yangi usullarini
- ✓ egallash, kasbiy kompetensiyaning oshishi).

Malaka oshirish tizimida yo‘riqchilar tayyorlash jarayonining sifatini baholashni tizimli tashkil etish, ya’ni monitoringni joriy etish zaruriyatini talab etadi. Mazkur monitoring biryoqlamalik tavsifiga ega bo‘lib, u, asosan, tinglovchilarning kurs oldi va so‘ngidagi tayyorgarligi saviyasi, o‘quv modullari bo‘yicha ta’lim samaradorligi, mashg‘ulotlar sifati, tinglovchilarning o‘tilgan darslarni baholashi, ta’lim muhitining tashkil etilish sifati, amalga oshirilgan o‘quv, tarbiyaviy va ma’naviy- ma’rifiy tadbirlar saviyasiga doir ma’lumotlarni olish imkoniyatini beradi. Monitoring natijalari ta’lim jarayoni sifati to‘g‘risida ma’lum darajada axborot beradi, lekin ta’lim sifatiga ta’sir etish va uni boshqarish uchun yetarli emas.

Malaka oshirish jarayoni pedagogik faoliyatning shaxsiy-yo‘naltirilgan jihatlarini o‘zlashtirish va ishlab chiqish, turli darajada ularni amalga oshirish, ta’lim jarayonining barcha sub’ektlarining shaxsiy rivojlanishini ta’minlash uchun imkoniyat yaratuvchi psixologik tayyorgarlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi zarur.

Buning uchun, mazmunan integrativ xususiyatga ega bo‘lgan, ta’lim menejmenti hamda boshqaruv psixologiyasining roli va ahamiyati kengroq yoritilgan, ta’lim jarayonida kompetentlilik, innovatsion faoliyat va pedagog shaxsining kasbiy sifatlari yo‘nalishidagi mavzularni o‘z ichiga olgan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uni tarkibiy jihatdan qayta qurish, ta’lim, fan, texnika va texnologiyaning, iqtisodiyot va madaniyatning jahon miqyosidagi zamonaviy yutuqlarini hisobga olgan holda ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining faoliyatlarini takomillashtirish va o‘quv jarayonini rivojlantirish lozim.

Ayni vaqtda ta’lim jarayonida yangiliklarni izlash, o‘rganish va ularga asoslanish hamda ilmiy asoslangan ma’lumotlardan foydalanish, ta’limning pedagogik, psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini o‘zlashtirish, shular qatori boshqaruv jarayoniga innovatsion yondashuv texnologiyalarini joriy etish yo‘nalishlari bo‘yicha oliy ta’lim tizimi xodimlari, pedagoglarda zaruriy bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishni inobatga olish zarurdir.

Malaka oshirish tizimida yo‘riqchilarning tayyorlashni tashkil etishda ularning shaxs sifatida umumiyligi rivojlanishi, shuningdek, pedagogik faoliyatga tayyorgarlik darajasini hisobga olish zarur.

Agar pedagogda shaxs sifatida yangiliklarni yaratishga ichki moslashuv va fikrlash usullari shakllangan bo‘lsa, u barcha o‘zgarishlarga o‘z munosabatini oson bildiradi, ularni to‘g‘ri baholaydi, boshqaradi va o‘z kasbiy sohasida ularni amalga oshiradi.

Agarda yangiliklarni yaratishga ichki moslashuv yaxshi shakllanmagan bo‘lsa, u shaxs sifatida ko‘proq konservativmga moyil bo‘ladi va bunda maxsus tashkil etilgan ta’lim zarur bo‘ladi. G.S.Suxobskayaning fikriga ko‘ra, bunday ijtimoiy-shaxsiy moslashuv ongning quyidagi sifatlarining rivojlanganligini nazarda tutadi: divergentlik, haqiqiylik, moslashuvchanlik, tanqidiylik. Bular analiz va sintez kabi fikrlash usullari bilan birgalikda o‘qituvchining tadqiqiy fikrlashini tashkil etadi.

Malaka oshirish tizimida yo‘riqchilarning tayyorlash tizimida ta’lim jarayonini tashkil etishda o‘zaro ta’sir jarayonining ahamiyatini, ya’ni kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan shaxsiy xususiyatlarning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi quyidagi natijalarga erishish mumkinligini inobatga olish zarur:

- ✓ shaxsning psixologik xususiyatlarining o‘zgarishi;
- ✓ ma’naviy va madaniy tushunchalarining rivojlanishi;
- ✓ kasbiy kompetentlilik darajasini ortishi;
- ✓ o‘zini-o‘zi anglash va o‘zini-o‘zi baholash ko‘nikmalarining rivojlanishi;
- ✓ hamkorlikdagi faoliyatni vujudga kelishi va unda axborotlar almashinuvni natijasida kasbiy faoliyatga psixologik moslashuvning vujudga kelishi;

✓ subyektning faolligi va tashabbuskorligining rivojlanishi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib aytish mumkinki, malaka oshirish tizimida yo‘riqchilarning kasbiy faolligini oshirish, refleksiv qobiliyatlarini takomillashtirish, ma’naviy va madaniy tushunchalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan o‘zaro ta’sirni vujudga keltiruvchi shaxslararo aloqalarni amalga oshirishda ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyat kasb etuvchi pedagog kadrlar tayyorlash tizimini joriy etish zarur.

Malaka oshirish tizimida kadrlar tayyorlash jarayonlarini tashkillashtirishda sub’ektning ichki imkoniyatlarini harakatga keltiruvchi, tushunchalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga ko‘maklashuvchi, pedagogikaning “tarbiya”-“o‘zini-o‘zi tarbiya”, “ma’lumot”-“mustaqil ma’lumot”, “ta’lim”-“mustaqil ta’lim” tushunchalari bir-birini to‘ldiruvchi hamda bira malaka oshirish tizimida yo‘riqchi tashkiliy va pedagogik madaniyatini shakllantirishning asosiy vositasi sifatida ijodiy vaziyatlarda madaniy ko‘nikmalarni shakllantirish dasturi ishlab chiqildi.

Tadqiqotchilar ta’kidlaganidek, vaziyat maqsadga erishishni ta’minlaydigan shart-sharoitlarning yig‘indisi, muvaffaqiyatning o‘zi esa bunday vaziyat natijasidir. Muvaffaqiyat o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi.

Muvaffaqiyatga erishish uchun sharoit yaratilishi, vaziyat tayyor bo‘lishi kerak; har bir kishi maqsadga yetish uchun yetaricha kuch va aqlga ega ekanligiga ishonch hosil qilishi lozim; talaba ham o‘zining muvaffaqiyati uchun avvalambor, o‘zi mas’ul ekanligiga amin bo‘lishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2017 yil 30 sentyabrdagi “Pedagogik madaniyat nuqtai nazaridan o‘z-o‘zini rivojlantirishni takomillashtirish haqida gapirganda, shunga e’tibor qaratish lozimki, talaba turli ijodiy vaziyatlarda ishtirok etib, o‘zini rivojlantirish imkoniyatlarini qo‘lga kiritadi.

Ushbu jarayon tashkiliy ko‘nikmalarning maqsadga muvofiq tarkib topishini ta’minlaydi.

Ko‘rinib turibdiki, bo‘lajak o‘qituvchida tashkiliy- pedagogik madaniyatni shakllantirishda turli pedagogik shakl, usul va vositalardan foydalanish muhimdir.

Yuqorida aytilganlarni umumlashtirib shuni ta’kidlaymizki, ijodiy vaziyatlarda madaniy ko‘nikmalarni shakllantirish jarayonida talabalar turli xil faoliyat turlari bilan shug‘ullanadilar, ijodiy izlanishda bo‘ladilar.

REFERENCES:

1. Абдуллаева Б. Фанлараро алоқадорликнинг методологик-дидактик асослари (Ижтимоий-гуманитар йўналишлардаги академик лицейларда математика ўқитиш мисолида).: Пед.фан.докт...дис. автореф. – Тошкент: ТДПУ. 2006. – 49 б.
2. Безрукова В.С. Педагогическая интеграция: сущность, состав, механизмы

реализации// Интеграционные процессы в педагогической теории и практике: сб. научн.тр./Свердловский инженерно-педагогический институт; Редкол.: В.С. Безрукова (отв. ред.) и др. - Свердловск: СИПИ, 1990. - С.5-25.

3. Занина Л.В., Меньшиков Н.П. Основы педагогического мастерства./Серия “Учебники, учебные пособия”. – Ростов н/Д: Феникс, 2003.- 288 с.
4. Қодиров У.Д. Ўқитувчининг психологик компетенциясига доир айrim мулоҳазалар. “Замонавий таълим” журнали, 2015 йил 4-сон.
5. Гозиев Э.Г. Психологические основы развития самоуправления учебной деятельностью у школьников и студентов.: дисс. докт. псих. наук. – Ташкент, 1991. – 316 с.